e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 10

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar
Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies
ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/rptena40

BUYUK BRITANIYA VA AMERIKA LUG‘ATLARIDA OFTALMOLOGIK TERMINLARNING LEKSIKOGRAFIK JIHATLARI

Ahmedova Aziza Mansurbek qizi
Qo‘qon universiteti Andijon filiali, o‘qituvchi.
e-mail: Akhmedovaaziza492@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0003-1904-4062

Annotatsiya.
Ushbu maqolada Buyuk Britaniya va AQSH lug‘atlaridan foydalanilgan holda ingliz tilidagi oftalmologik terminlar ko‘rib chiqildi. Tadqiqot materiali sifatida yettita umumiy va tibbiy lug‘atdan (Britaniya lug‘atlari: OALD, LDOCE, CED; Amerika lug‘atlari: MW, MWMD, RHUD, AHD) 13 ta termin tanlab olindi. Terminlarning lug‘atlarda qanday berilganligi, etimologik ma’lumotlari, Britaniya va Amerika variantlari hamda sohaviy belgilari tahlil qilindi. Muayyan sohaga ixtisoslashgan terminlar Britaniya umumiy lug‘atlarida deyarli uchramasligi, Amerika leksikografiyasida esa umumiy va tibbiy lug‘atlar bir-birini to‘ldirishi qayd etildi.

Kalit so‘zlar: oftalmologik termin, leksikografiya, Britaniya varianti, Amerika varianti, lug‘at belgisi, sinonimiya, variantlilik.

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОФТАЛЬМОЛОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В БРИТАНСКИХ И АМЕРИКАНСКИХ СЛОВАРЯХ

Ахмедова Азиза Мансурбек кизи
Андижанский филиал Кокандского университета, преподаватель.

Аннотация.
В статье рассматриваются офтальмологические термины английского языка на материале британских и американских словарей. В качестве исследовательского материала были отобраны 13 терминов из семи общеязыковых и медицинских словарей (британские словари: OALD, LDOCE, CED; американские словари: MW, MWMD, RHUD, AHD). Проведён анализ способов представления терминов в словарях, этимологических сведений, британских и американских вариантов, а также отраслевых помет. Установлено, что узкоспециализированные термины практически не встречаются в британских общеязыковых словарях, тогда как в американской лексикографии общеязыковые и медицинские словари взаимно дополняют друг друга.

Ключевые слова: офтальмологический термин, лексикография, британский вариант, американский вариант, словарная помета, синонимия, вариативность.

LEXICOGRAPHIC FEATURES OF OPHTHALMOLOGICAL TERMS IN BRITISH AND AMERICAN DICTIONARIES

Ahmedova Aziza Mansurbek qizi
Andijan Branch of Kokand University, Lecturer.

Abstract.
This article examines ophthalmological terms in English using British and American dictionaries. The research material consists of 13 terms selected from seven general-purpose and medical dictionaries (British dictionaries: OALD, LDOCE, CED; American dictionaries: MW, MWMD, RHUD, AHD). The study analyzes how these terms are represented in dictionaries, their etymological information, British and American variants, and subject-field labels. The findings indicate that highly specialized terms are rarely found in British general-purpose dictionaries, whereas general-purpose and medical dictionaries complement each other in American lexicography.

Keywords: ophthalmological term, lexicography, British English, American English, dictionary label, synonymy, variation.

Kirish. Terminlarning shakllari, ma’nolari va qo‘llanish usullari ko‘pincha lug‘atlarda ko‘rsatilib, mustahkamlanib boriladi. Shuning uchun ingliz tilidagi oftalmologik terminlarni o‘rganishda lug‘atlarga ham material manbasi, ham me’yoriy manba sifatida qaraladi. Ingliz tili leksikografiyasida tibbiy terminlar umumiy lug‘atlarga XVIII asrdan boshlab “terms of art” sifatida kiritila boshlangan [5, b. 84]. Hozir ham glaucoma, cataract, conjunctivitis kabi so‘zlarni tibbiy lug‘atlarda ham, oddiy o‘quv lug‘atlarida ham uchratish mumkin.

Oftalmologik terminlar misolida ham bunday xilma-xillikni uchratishimiz mumkin. Ya’ni ular tuzilishiga ko‘ra turlicha: sodda, yunon-lotin asosli yoki ularning elementlaridan yasalgan, qo‘shma va qisqartma terminlar shaklida keladi. Bundan tashqari, Britaniya va Amerika variantlarida ham farqlar kuzatiladi. Masalan, BrE short-sighted va AmE

nearsighted (miopiya yoki uzoqni yaxshi ko‘ra olmaslik), optician yoki optometrist (ko‘rish qobiliyatini tekshirish va korreksiya qilish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar) kabi birliklarda farqlar mavjud, ya’ni ikki mamlakatning lug‘at an’analari ham bir xil emas.

Ko‘p hollarda lug‘at turlari va belgilar tizimi nazariy jihatdan yaxshi o‘rganilgan, ammo ingliz tilidagi oftalmologik terminlarning Britaniya va Amerika lug‘atlarida qanday shaklda berilishi alohida tahlil qilingan ishlar uchratilmadi. Shu sababli maqolaning maqsadi sifatida oftalmologik terminlarning ikki mamlakat lug‘atlarida berilishidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash ko‘zda tutilgan. Buning uchun terminlarning lug‘atga kiritilganligi, ularning lug‘atlardagi struktur-semantik ma’lumotlari, variantlari va sohaviy belgilari ko‘rib chiqildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

M. Alberts leksikografiya va terminografiyani bir-biridan keskin ajratmay, leksikograf umumiy til so‘zlarini, terminograf esa muayyan soha terminlarini qayd etishini, farq asosan tavsiflanayotgan birlikda ekanligini ta’kidlagan [1, b. 71–73]. Uning fikriga ko‘ra, umumiy leksikografiya tasviriy, terminografiya esa me’yoriy xarakterga ega bo‘lib, shu bilan birgalikda lug‘atning mazmunini birinchi navbatda uning foydalanuvchisi belgilaydi [1, b. 71–78]. S. Tarp ham ushbu fikrni davom ettirib, ta’rifning semantik yoki ensiklopedik bo‘lishi emas, balki uning foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashishini muhim omillardan biri sifatida keltiradi [15, b. 203]. R. Gouws esa ta’rif hajmi lug‘atning hajmi va kimga mo‘ljallanganiga qarab o‘zgarishini misollar yordamida ko‘rsatib o‘tgan [7, b. 6–8].

Tibbiy terminlarning umumiy lug‘atlarda berilishini M. V. Domínguez-Rodríguez N. Bailey lug‘ati misolida o‘rgangan. Uning kuzatuvlariga ko‘ra, ta’riflarda sinonim orqali izohlash eng ko‘p uchraydi, undan keyin giponimik ta’rif, simptomlar orqali tavsiflash, havola va etimologik izoh keladi [5, b. 96–97]. Lug‘at belgilariga oid M. Vrbinc ishida hududiy, davriy va sohaviy belgilar farqlanadi hamda OALDda sohaviy belgilar lug‘at boshida to‘liq ko‘rsatilmagani qayd etiladi [16, b. 426–427, 430]. Britaniya va Amerika imlo farqlari esa tibbiy matnlarda Yu. Lysanets va hammualliflari tomonidan tizimlashtirilgan [10, b. 252]. O‘zbek tilshunosligida M. Najmiddinov terminologik lug‘at maqolasining bosh so‘z, fonetik va grammatik tavsif, semantika, etimologiya, misol va havola kabi tarkibiy qismlarini yoritib o‘tgan [13, b. 1015].

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot materiali sifatida Britaniyaning uchta lug‘ati, ya’ni Oxford Advanced Learner’s Dictionary (OALD), Longman Dictionary of Contemporary English (LDOCE), Collins English Dictionary (CED) hamda Amerikaning to‘rtta lug‘ati — Merriam-Webster (MW), Merriam-Webster Medical Dictionary (MWMD), Dictionary.com Unabridged (RHUD) va American Heritage Dictionary (AHD) tanlab olindi hamda ularning onlayn versiyalaridan foydalanildi. Ushbu lug‘atlar asosida 13 ta termin tanlandi. Ular: glaucoma, cataract, squint, stye (sodda), conjunctivitis, astigmatism, presbyopia, keratoconus, optician (yasama), short-sighted, pink eye, phacoemulsification (qo‘shma), LASIK (qisqartma). Bulardan 8 tasi lug‘atga kiritilganligi bo‘yicha, qolgan 5 tasi esa variantlilik jihatidan tahlil qilindi. Ishda metaleksikografik tahlil va qiyosiy metod qo‘llanildi.

NATIJALAR

Natijalarga ko‘ra, birinchi guruh uchun yig‘ilgan 8 ta termindan to‘rttasi yettala lug‘atda mavjud bo‘lib, ular orasida glaucoma, conjunctivitis va astigmatism terminlari bor. Presbyopia esa LDOCEda topilmadi, ammo u OALD va CEDda berilgan [3; 14]. Keratoconus, phacoemulsification va LASIK terminlari Britaniya lug‘atlarining birortasida qayd etilmagan. Amerika lug‘atlarida esa LASIK termini uchta lug‘atda qayd etilgani kuzatildi [2; 4; 11]. Shu bilan birgalikda, phacoemulsification AHD va RHUDda mavjud [2; 4], keratoconus esa faqat MWMD va RHUD lug‘atlarida berilgan [12; 4]. MWMD tibbiy lug‘at bo‘lgani uchun yuqoridagi barcha terminlar osonlik bilan topildi. Ushbu natijalardan xulosa qiladigan bo‘lsak, nafaqat terminlarning murakkab yoki soddaligi, balki ularning kundalik nutqqa qanchalik tez kirib kelgani ham umumiy lug‘atlarga kiritilishida muhim omil bo‘la oladi. Masalan, phacoemulsification yasalish jihatidan murakkab termin, ammo u o‘zidan qisqaroq bo‘lgan keratoconusga qaraganda AHDga kiritilgan. Chunki u yerda katarakta operatsiyasi keng tarqalgani sababli ushbu termin kundalik nutqqa va lug‘atlarga tezroq kirib kelgan. Quyidagi jadvalda birinchi guruh oftalmologik terminlarining lug‘atlarda qayd etilishini ko‘rish mumkin:

Termin	OALD	LDOCE	CED	MW	MWMD	RHUD	AHD
glaucoma	+	+	+	+	+	+	+
cataract	+	+	+	+	+	+	+
conjunctivitis	+	+	+	+	+	+	+
astigmatism	+	+	+	+	+	+	+
presbyopia	+	-	+	+	+	+	+
keratoconus	-	-	-	-	+	+	-
phacoemulsification	-	-	-	-	+	+	+
LASIK	-	-	-	+	+	+	+

Endi lug‘atlardagi so‘zlarning struktur-derivatsion ma’lumotlariga kelsak, ular terminlarning tuzilishini alohida ko‘rsatmaydi, biroq terminlarga beriladigan etimologik izohlar ko‘pincha ushbu vazifani bajara oladi. Masalan, astigmatism terminini oladigan bo‘lsak, u inkor ma’nosini bildiradigan a- prefiksi, yunoncha o‘zak (stigma) va -ism suffiksiga ajratiladi [14]. Phacoemulsification esa yunoncha element va inglizcha so‘zning birikishidan tuzilgan gibrid termin ekanligi ko‘rinadi [4]. Bundan tashqari, lug‘atlarda so‘zlar va terminlarga berilgan etimologik izohlar nafaqat ularning semantik tuzilishini, balki terminlarning ma’no jihatidan taraqqiyotini ham ko‘rsatadi. Masalan, RHUD ma’lumotiga ko‘ra, katarakta va glaukoma XVIII asrgacha aniq farqlanmagan [4]. AHDda esa LASIK qisqartmasining qanday qismlardan olingani qavslar yordamida aniq ko‘rsatilgan, ya’ni LA(ser-assisted in) SI(tu) K(eratomileusis) [14].

Bundan ko‘rinib turibdiki, LASIK termini faqat bosh harflardan emas, balki so‘z bo‘laklaridan tuzilgan. Quyidagi jadvalda lug‘atlarda berilgan etimologik va derivatsion ma’lumotlarni ko‘rish mumkin.

Termin	**Lug‘atdagi ma’lumot**
astigmatism	a- “siz” + yun. Stigma “nuqta” + ism[14]
keratoconus	Kerato+lot. Conus “konus”, ko‘plik keratoconi [4]
phacoemulsification	Phaco- yunoncha, phakos “yasmiq”+emulsification; var. Phakoemulsification [4]
LASIK	La(ser-assisted in) si(tu)k(eratomileusis); var. Lasik [2]
glaucoma	Lot. Glaucoma “katarakta” yun. Glaukos “kulrang”[2]
presbyopia	Yun. Prebus “qariya”+opia [2].

Britaniya va Amerika variantlarini talaffuz nuqtayi nazaridan tahlil qilsak, glaucoma terminining LDOCEda ikkala varianti ham berilgan (glɔːˈkəʊmə; glɒːˈkoʊ-) [9]. Yozuvda esa stye / sty, pink eye / pinkeye, phacoemulsification / phakoemulsification, LASIK / Lasik kabi juftliklar kuzatiladi. Umuman olganda, Britaniya variantlarida lotincha ae va oe yozilishi saqlanib qolgan, masalan, anaemia, oesophagus, Amerika variantlarida esa e bilan yoziladi [10, b. 252]. Yana bir misol tariqasida oftalmologiyaga tegishli bo‘lgan macular oedema / macular edema birikmasini ham olishimiz mumkin.

Bundan tashqari, Britaniya o‘quv lug‘atlarida terminlarning ikkala varianti ham belgilanadi. Misol tariqasida yana LDOCE lug‘atini olamiz. Unda short-sighted termini “especially BrE” deb, nearsighted esa “especially AmE” deb berilgan [9]. Amerika lug‘atlari esa Britaniya shaklini ko‘pincha belgisiz beradi. Ya’ni MWda squint terminining sinonimi sifatida strabismus yozilgan, ammo uning ko‘proq Britaniyada ishlatilishi haqida hech qanday ma’lumot keltirilmagan [11]. Optician termini esa ikki variantda ham ikki xil ma’no bildirishini OALDda ko‘rishimiz mumkin. Unga ko‘ra, Britaniyada optician ko‘zni tekshiradigan mutaxassis bo‘lsa, Amerikada faqat ko‘zoynak tayyorlaydigan mutaxassis sifatida ajratiladi [14]. MW lug‘atida esa terminlar va so‘zlarning faqat Amerika variantidagi ma’nolari berilgan bo‘ladi [11].

Olingan natijalarni faqat ikki mamlakat an’analari bilan izohlash ko‘pincha to‘g‘ri bo‘lmaydi, chunki lug‘at turi ham katta rol o‘ynaydi. RHUD to‘liq lug‘at bo‘lganligi bois o‘quv lug‘atlariga qaraganda ko‘proq terminlarni qamrab olishi tabiiy va bu Alberts va Gouws ta’kidlagan foydalanuvchi omiliga mos keladi [1, b. 71; 7, b. 6]. Shunday bo‘lsa-da, Amerika lug‘atchiligida umumiy MW va unga yo‘ldosh bo‘lgan MWMD birgalikda ishlaydi, ya’ni tor soha terminlari umumiy lug‘atda bo‘lmasa ham, tibbiy bo‘limda topiladi. Britaniya lug‘atlarida esa ko‘proq tez-tez ishlatiladigan terminlar tanlab olinib, ular sodda tilda tushuntiriladi. LDOCEda presbyopia terminining mavjud emasligi ham ushbu tanlov tamoyilini izohlaydi.

Qo‘shimchasiga, hududiy belgilardagi asimmetriya ingliz tilini chet tili sifatida o‘rganuvchilarga muammo tug‘dirishi ehtimoli yuqori. Chunki faqat MWdan foydalanadigan talaba squint termini hamma joyda ishlatiladi deb o‘ylashi mumkin. Shuningdek, ba’zi lug‘atlarda sohaviy belgining yo‘qligi terminlarning odatiy so‘zga aylanganini bildirmaydi. Bunga misol tariqasida OALDdagi glaucoma terminini olishimiz mumkin. Shu sababli nafaqat oftalmologik terminlar, balki barcha tibbiyotga oid terminlarning lug‘atda berilish tartibida hududiy belgi, izchil sohaviy belgi, ilmiy sinonim va kamida ikki darajali, ya’ni kundalik va tibbiy ta’rif berilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytib o‘tamizki, asosiy oftalmologik terminlar Britaniya va Amerika lug‘atlarining barchasida mavjud, ammo keratoconus, phacoemulsification, LASIK kabi tor ixtisoslashgan va texnologik terminlar Britaniya lug‘atlarida topilmadi. Amerika lug‘atlari yuqorida eslab o‘tilgan terminlarning ancha ko‘p qismini o‘z ichiga oladi. Lug‘atlardagi etimologik izohlar yasama terminlarning tuzilishini o‘rganishda katta rol o‘ynaydi, ammo bu kabi ma’lumotlar hamma lug‘atlarda bir xil emas. Britaniya va Amerika variantlari talaffuz, yozuv va leksik darajada namoyon bo‘ladi, ammo ularning belgilanishi Britaniya lug‘atlarida aniqroq ko‘rinadi. Bundan tashqari, kelgusida Dorland’s va Stedman’s kabi bosma tibbiy lug‘atlardan foydalangan holda tahlilni yanada kengroq va ko‘proq terminlar yordamida davom ettirish rejalashtirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alberts M. Lexicography versus Terminography // Lexikos. – 2001. – Vol. 11. – P. 71–84.
2. The American Heritage Dictionary of the English Language. – 5th ed. – Boston: HarperCollins, 2022. – Elektron resurs. – URL: https://ahdictionary.com.
3. Collins English Dictionary: Complete & Unabridged. – 2012 Digital Edition. – Glasgow: HarperCollins, 2012. – Elektron resurs. – URL: https://www.dictionary.com.
4. Dictionary.com Unabridged. – Random House. – Elektron resurs. – URL: https://www.dictionary.com.
5. Domínguez-Rodríguez M. V. An Overview of Medical Terminology in Nathan Bailey’s An Universal Etymological English Dictionary (1721) // Token: A Journal of English Linguistics. – 2019. – Vol. 8. – P. 83–106.
6. Explanatory Notes: Definitions // Merriam-Webster. – Elektron resurs. – URL: https://www.merriam-webster.com/help/explanatory-notes/dict-definitions.
7. Gouws R. H. Special Field and Subject Field Lexicography Contributing to Lexicography // Lexikos. – 2020. – Vol. 30. – P. 1–28.
8. Kipfer B. A. Methods of Ordering Senses within Entries // LEXeter ’83 Proceedings / ed. by R. R. K. Hartmann. – Tübingen: Max Niemeyer, 1984. – P. 101–108.
9. Longman Dictionary of Contemporary English Online. – Pearson. – Elektron resurs. – URL:

ISSN 3060-5059 (Online)

https://www.ldoceonline.com.

10. Lysanets Yu., Bieliaieva O., Pisotska O. Professional Medical Discourse in British and American English: Spelling Differences // Naukovi zapysky Natsionalnoho universytetu «Ostrozka akademiia». Seriia «Filolohiia». – 2018. – Vyp. 1 (69), ch. 1. – P. 251–253.

11. Merriam-Webster.com Dictionary. – Springfield: Merriam-Webster. – Elektron resurs. – URL: https://www.merriam-webster.com.

12. Merriam-Webster.com Medical Dictionary. – Springfield: Merriam-Webster. – Elektron resurs. – URL: https://www.merriam-webster.com/medical.

13. Najmiddinov M. Terminologik lug‘atning makro va mikrostrukturasi // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2021. – Vol. 1, № 9. – B. 1013–1020.

14. Oxford Learner’s Dictionaries. – Oxford: Oxford University Press. – Elektron resurs. – URL: https://www.oxfordlearnersdictionaries.com.

15. Tarp S. Theoretical Challenges to Practical Specialised Lexicography // Lexikos. – 2000. – Vol. 10. – P. 189–208.

16. Vrbinc M., Vrbinc A. Diasystematic Information in the ‘Big Five’: A Comparison of Print Dictionaries, CD-ROMs/DVD-ROMs and Online Dictionaries // Lexikos. – 2015. – Vol. 25. – P. 424–445.